# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

# GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

*Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal*

2026-YIL / SENTABR / 9-SON, I-QISM



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.*
*I-qism*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir oʻrinbosari:**
**Karimov Norboy Gʻaniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – Oʻzbekiston doʻstlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat Gʻafforovna,** pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdugʻaniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Koʻnak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoʻja oʻgʻli,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Faxridinov Zafarjon Faxridin oʻgʻli,** Oʻzb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshligʻi
**Utayev Uktam Choriyevich,** Anijon viloyati prokurorining oʻrinbosari
**Ochilov Farkhod,** Oʻzb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshligʻi
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil oʻgʻli,** texnika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), katta oʻqituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon oʻgʻli,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor oʻgʻli,** TDIU katta oʻqituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna,** bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
**Ikramov Murod Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**
**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli,** Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Prosecutor of Anijan Region
**Ochilov Farkhod,** Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Ikramov Murod Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Ekspertlar kengashi:**
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**G'afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o'qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Zebo Kuldasheva,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc ), dotsent

**Board of Experts:**
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
**Zebo Kuldasheva,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

**Jurnalning ilmiyligi:**
""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INVESTITSION FAOLIYATNI RAG'BATLANTIRISH VA BAHOLASHNING XORIJIY TAJRIBASI ........ 34
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna

BREND POZITSIYALASH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISHDA BOZOR TADQIQOTLARI METODIKASI ........ 41
Jumayeva Zulfiya Qayumovna

GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIKNING O'ZBEKISTON MILLIY VALYUTASI BARQARORLIGIGA TA'SIRI ........ 46
Davlatova Nilufar Avazovna

KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGI: MANZILLI SAMARADORLIK INDEKSI (MSI) ASOSIDA BANDLIK DASTURLARINI BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA) ........ 50
Eshmurodov Adhamjon Rahmonjonovich

АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ ООО «SAM PULSAR DISTRIBUTORS» ........ 61
Мусаева Шоира Азимовна

KICHIK BIZNESDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI ........ 68
Tukhtasinova Intizorkhon Sherzod qizi

GLOBALLASHUV DAVRIDA JAHON IQTISODIYOTIDAGI O'ZGARISHLARNING YANGI O'ZBEKISTONGA TA'SIRI ........ 73
Jahongir Nurulloyevich Jurayev

YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGI ........ 77
Nasulloeva Oydinoy Saidovna

ПРИВЛЕЧЕНИЕ МОЛОДЁЖИ К ЭКСПОРТУ ЦИФРОВЫХ УСЛУГ: МЕХАНИЗМ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ........ 82
Палвонова Севара Бахромовна

MINTAQA IQTISODIYOTINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHDA IT-PARKLARNING NAZARIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI ........ 94
Sultanova Zuxra Jaksilikovna

INSON KAPITALINING KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI ........ 99
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich
Dilmurodov Komiljon Ahmad o'g'li

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI MONITORING QILISHNING INTEGRATSIYALASHGAN UZEMS MODELI ........ 103
Bobobekov Ergash Abdumalikovich

AUDIT JARAYONIDA MOLIYAVIY FIRIBGARLIK BELGILARINI ANIQLASHNING TAHLILIY TARTIB-TAOMILLARINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 108
Xusanov Shuxrat Burxanovich

FROM AUTOMATION TO STANDARDIZATION: OPERATIONS MANAGEMENT CHALLENGES IN UZBEKISTAN'S HOSPITALITY SECTOR ........ 115
Asal Kadirova

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСТИНИЧНЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ ........ 125
Нигматова Сугдиена Жалолиддин кизи

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

SANOAT 4.0 TEXNOLOGIYALARINING RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI VA UZOQ MUDDATLI IQTISODIY O‘SISHDAGI ROLI ..... 131
Komilova Dilafruz Rustam qizi
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAISHIY XIZMAT KO‘RSATISH TARMOG‘INI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI ..... 137
Samiyeva Gulnoza Toxirovna
O‘taganov Fazliddin Isroil o‘g‘li
ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СТРАХОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТУРИСТСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ ..... 142
Эргашева Файёза Бохoдир кизи
МЕХАНИЗМЫ ГАРМОНИЗАЦИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО УЧЕТА И ОТЧЕТНОСТИ В МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКЕ ..... 146
Жиенбаева Айсанем Оразбаевна
XORAZM VILOYATIDA SHOLI YETISHTIRISHNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA UNING RESPUBLIKA SHOLICHILIGIDAGI O‘RNI ..... 154
Matrasulova Feruza Baxodirovna
YIRIK KORXONALARDA SOLIQ NAZORATINING HUQUQIY ASOSLARI VA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI ..... 159
Qo‘shaqov Asrorjon Nematjonovich
ФОРМИРОВАНИЕ РЕЗУЛЬТАТИВНОЙ СТРУКТУРЫ БЮДЖЕТНЫХ ПРОГРАММ В СФЕРЕ СТРОИТЕЛЬСТВА И ЖИЛИЩНО-КОММУНАЛЬНОГО ХОЗЯЙСТВА: МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ..... 166
Мирзаева Дилдора Иномовна
O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI VA KREDIT RISKLARI HOLATINI BAHOLASH (DAVLAT BANKLARI MISOLIDA) ..... 174
Eshboyev Shahobiddin Anorqul o‘g‘li
O‘ZBEKISTONDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI ..... 183
Aslanova Dilnoza Fatilloyevna
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TASHKILOT BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: NAZARIY YONDASHUVLAR VA BAHOLASH METODOLOGIYASI ..... 187
Raxmonova Nilufar Umedovna
HUDUDIY IQTISODIYOT TARKIBIY O‘ZGARISHLARINI SHAKLLANTIRISHDA SANOATLASHUV, XIZMATLAR SEKTORI VA INVESTITSIYALARNING ROLI ..... 196
Raxmonqulova Nafisa Olimjon qizi
SOLIQ BAZASI TUSHUNCHASI, UNING MAZMUNI VA IQTISODIY MOHIYATI ..... 201
Gadoyeva Nilufar Erkinovna
SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA KORXONALARNING MOLIYAVIY MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ..... 208
Atadjanova Sevinch Qurbonbayevna
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON TIJORAT SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ..... 214
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich
XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION MARKETINGNI QO‘LLASH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ..... 222
I.R.Sabirjanova
OPPORTUNITIES FOR UTILIZING TAX INCENTIVES GRANTED TO SMALL AND MEDIUM-SIZED ENTERPRISES FOR THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THEREGIONAL ECONOMY ..... 228
Palvanbayev Umidbek Uktam o‘g‘li
MINTAQAVIY TURISTIK KLASTERLARNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: IQTISODIY SAMARADORLIK MODELI ..... 233
Kazokova Dilnoza Bobirovna
KORPORATIV BOSHQARUVNING QURILISH KORXONALARI IQTISODIY SAMARADORLIGIGA TA’SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY YONDASHUVLARI ..... 238
G‘iyosov Ilxom Karimovich

O‘ZBEKISTONDA KAPITAL BOZORINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI TAHLILI ........ 246
**Xaitova Gulmira Matsalayevna**
SUV TEJOVCHI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR RIVOJLANISHINING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI ........ 253
**Sangirova Umida Ravshanovna**
МЕТОДЫ СИСТЕМ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ И ПЛАНИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ ........ 259
**Н. М. Эргашева**
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI ........ 265
**Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich**
**Ishbekova Lobar Yunusxonovna**
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING TO‘LOV QOBILIYATINI TA’MINLASHDA PUL OQIMLARINI BOSHQARISHNING O‘RNI ........ 271
**Ishbekova Lobar Yunusxonovna**
ТЕНДЕНЦИИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ТАДЖИКИСТАНА ЗА 35 ЛЕТ ГОСУДАРСТВЕННОЙ НЕЗАВИСИМОСТИ ........ 276
**Икроми Нуриддин Киём**
**Раҳматзода Далер Талбак**
YANGI O‘ZBEKISTONDA GILAMCHILIK SANOATINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI VA ISTIQBOLLARI ........ 283
**Farog‘at Xo‘jabekova**
MINTAQADA AGROTURIZMNI XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA RIVOJLANTIRISH: XALQARO MODELLAR VA O‘ZBEKISTON UCHUN INNOVATSION MEXANIZMLAR ........ 288
**Aliqulov Humoyun Tohir o‘g‘li**
KICHIK BIZNESDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-BOSHQARUV MEXANIZMI ........ 294
**Kabilova Shahnoza Jurayevna**
SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI VA MOBIL ILOVALAR YORDAMIDA CHAKANA BANK XIZMATLARINI KO‘RSATISH ........ 301
**Parpiboyeva Lobar Abdikomilovna**
TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV MIJOZLARNI MOLIYALASHTIRISHNING TAHLILI ........ 308
**Abduraxmanov Farrux Talipjanovich**
TURIZM SOHASI BARQAROR RIVOJLANISHINING ASOSIY TENDENSIYALARI VA TARKIBIY O‘ZGARISHLARI TAHLILI ........ 316
**O‘sarov Abdulla Davronqulovich**
KICHIK BIZNES SOHASIDA INSON KAPITALI VA MEHNAT MUNOSABATLARINING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI, MOHIYATI VA NAZARIY YONDASHUVLAR ........ 323
**Ulug‘muradova Nodira Berdimuradovna**
MILLIY YASHIL TAKSONOMIYANING O‘ZBEKISTONDA YASHIL INVESTITSIYALAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI ........ 329
**Usmonova Gulasal Akmal qizi**
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BUXGALTERIYA HISOBI TIZIMINI ISLOH ETISHNING ASOSIY BOSQICHLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI ........ 334
**Bekimbetova Asal Ergash qizi**
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ЗАКУПОК: ОТ ТРАДИЦИОННЫХ ТЕНДЕРОВ К ЭЛЕКТРОННЫМ ПЛАТФОРМАМ ........ 340
**Ризакулов Шерзод Шермуратович**
TIJORAT BANKLARIDA JISMONIY SHAXSLARNI KREDITLASH AMALIYOTINING EKONOMETRIK PROGNOZI VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI ........ 346
**Jumayev Azamat Qurbonali o‘g‘li**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

TIJORAT BANKLARIDA STRATEGIK REJALASHTIRISH JARAYONLARIGA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATSIYALASH MEXANIZMLARI ... 352
Ro'ziboyev Shuxrat Komilovich
ADVOKATLIK XIZMATLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH ... 360
Turayev Shaxriyor Shodiyorovich
OLIY TA'LIM XIZMATLARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ... 366
Pardayev Jaxongir Sobirjon o'g'li
TIJORAT BANKLARINING KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDAGI ISHTIROKINI OSHIRISH YO'LLARI ... 372
Butayev Axror Abduxolikovich
GLOBALLASHUV VA RAQOBAT SHAROITIDA O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINI O'TKAZISHNING MUHIMLIGI HAMDA UNING KELGUSI ISTIQBOLLARI ... 385
Nizamov Umid Najimovich
PATHWAYS TO SUSTAINABLE ENERGY TRANSITION IN UZBEKISTAN AND THE ROLE OF POLICY AND INVESTMENT MECHANISMS (EVIDENCE FROM INPUT-OUTPUT-CGE MODEL) ... 391
Gulmuxamedova Dilbar
O'ZBEKISTONDA SOLIQ SIYOSATINING MAKROIQTISODIY BARQARORLIKKA TA'SIRI ... 399
Xakimov Ulug'bek Abdullayevich
HUDUDLARDA YASHIL TURIZMNI RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI VA HOLATINI TAHLILI ... 405
Nozimov Eldor Anvarovich
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DAROMADLAR VA XARAJATLAR BUXGALTERIYA HISOBINI MHXS ASOSIDA YURITISHNI TAKOMILLASHTIRISH ... 410
Kuvatova Dinara Anvarovna
HUDUDIY IQTISODIY SALOHIYAT VA ELEKTRON TIJORAT RIVOJLANISHI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKNI BAHOLASH ... 416
Ravshanova Muhayyo Maxmanazarovna
QAYTA ISHLASH SANOATINI TIZIMLI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI: MODEL VA PROGNOZLAR ... 421
Jo'rayev Farrux Do'stmirzayevich
Rahimov Abdihakim Muhammadiyevich
TASHQI SAVDONI RIVOJLANTIRISH JARAYONLARINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH ... 425
Jo'rayev Farrux Do'stmirzayevich
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT VA "YASHIL IQTISODIYOT" SHAROITIDA MULKCHILIK MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI ... 429
Tashmuhamedova Mahina
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ДОВЕРИТЕЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННЫМИ ДОЛЯМИ ... 437
Ибрагимов Махмуд Баходирович
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA INVESTITSIYALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH ... 445
Ro'ziboyeva Zebiniso Umidbekovna
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AUTSORSING XIZMATLARINING XUSUSIYATLARI ... 452
Mirxonov Mirfoziljon Olimjon o'g'li
TA'LIM XIZMATLARI EKSPORTINI OSHIRISH JARAYONLARINI STRATEGIK BOSHQARISH MEXANIZMLARI ... 456
Alimova Shamsiya Abidovna

TIJORAT BANKLARIDA JISMONIY SHAXSLARNI KREDITLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI ............ 464
**Aminova Mehriniso Erkinjonovna**
ECONOMETRIC METHODOLOGY AND ASPECTS OF SUSTAINABLE TRANSPORTATION DEVELOPMENT IN THE KHOREZM REGION ............ 470
**Karimboev Dilshod**
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA "NAVOIY KMK" AJ INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI PROGNOZLASH ............ 475
**Kurbanova Mehriniso Nematjanovna**

# YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA "NAVOIY KMK" AJ INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI PROGNOZLASH

**Kurbanova Mehriniso Nematjanovna**
**PhD, Toshkent davlat transport universiteti**
**Transport iqtisodiyoti kafedrasi dotsenti**
**E-mail: kurbanovanisoxon@gmail.com**
**ORCID: 0000-0001-7568-4687**

**Annotatsiya:** Maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida "Navoiy KMK" AJ innovatsion faoliyati samaradorligini prognozlash masalalari tadqiq etilgan. Resurs tejamkor texnologiyalar, energiya samaradorligi, yashil texnologiyalar hissasi va integral yashil samaradorlik indeksining iqtisodiy natijalarga ta'siri baholangan. 2020–2025-yillar dinamikasi asosida innovatsion faoliyatning tannarx, resurs tejalishi va barqaror raqobatbardoshlikka ta'siri asoslangan. Tadqiqot natijalari yashil innovatsiyalar konchilik korxonalari uchun strategik iqtisodiy o'sish omiliga aylanayotganini ko'rsatadi.
**Kalit so'zlar:** Navoiy KMK, yashil iqtisodiyot, innovatsion faoliyat, prognozlash, resurs tejamkorlik, IGEI, energiya samaradorligi.
**Аннотация:** В статье исследуются вопросы прогнозирования эффективности инновационной деятельности АО «Навоийский ГМК» в условиях зелёной экономики. Оценено влияние ресурсосберегающих технологий, энергоэффективности, доли зелёных технологий и интегрального индекса зелёной эффективности на экономические результаты. На основе динамики за 2020–2025 годы обосновано влияние инновационной деятельности на себестоимость, экономию ресурсов и устойчивую конкурентоспособность. Результаты исследования показывают, что зелёные инновации становятся фактором стратегического экономического роста для горнодобывающих предприятий.
**Ключевые слова:** Навоийский ГМК, зелёная экономика, инновационная деятельность, прогнозирование, ресурсосбережение, IGEI, энергоэффективность.
**Abstract:** The article investigates the forecasting of the efficiency of innovative activity at Navoiy Mining and Metallurgical Company JSC under green economy conditions. The impact of resource-efficient technologies, energy efficiency, the share of green technologies, and the Integrated Green Efficiency Index on economic outcomes is assessed. Based on the dynamics for 2020–2025, the impact of innovative activity on costs, resource savings, and sustainable competitiveness is substantiated. The findings demonstrate that green innovations are becoming a strategic factor of economic growth for mining enterprises.
**Keywords:** Navoiy Mining and Metallurgical Company, green economy, innovative activity, forecasting, resource efficiency, IGEI, energy efficiency.

## KIRISH

Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida konchilik sanoati korxonalarining rivojlanishi endilikda faqat ishlab chiqarish hajmini oshirish, eksport tushumlarini ko'paytirish yoki yangi konlarni o'zlashtirish bilan belgilanmaydi. Zamonaviy sharoitda sanoat korxonasining haqiqiy samaradorligi uning qancha mahsulot ishlab chiqargani bilan birga, ushbu mahsulotni qanday resurs sarfi, qanday ekologik yuklama va qanday innovatsion texnologiyalar asosida yaratgani bilan baholanadi. Ayniqsa, tog'-kon sanoati kabi kapital, energiya va suv talabchan tarmoqlarda innovatsion faoliyatni yashil iqtisodiyot mezonlari asosida prognozlash strategik zaruratga aylanmoqda.

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ O‘zbekiston sanoat tizimida yirik ishlab chiqarish majmuasi sifatida muhim o‘rin tutadi. Korxonaning texnologik jarayonlari qazib olish, boyitish, qayta ishlash, metallurgik ishlab chiqarish, energiya ta’minoti, suv resurslaridan foydalanish va ekologik monitoring kabi ko‘p bosqichli jarayonlarni qamrab oladi.[1] Bunday sharoitda innovatsion faoliyatni baholash va prognozlash oddiy moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan cheklanib qolmasligi kerak. U resurs tejamkorlik, energiya samaradorligi, yashil texnologiyalar hissasi, ekologik yuklama va tannarx dinamikasini birgalikda qamrab olishi lozim [1].

Bugungi kunda konchilik korxonalari oldida ikki tomonlama vazifa turibdi. Bir tomondan, mineral resurslarga bo‘lgan global talab ortib bormoqda. Ikkinchi tomondan esa xalqaro bozorlarda ESG talablari, uglerod izi, ekologik sertifikatlash, yashil moliya va barqaror yetkazib berish zanjiri mezonlari kuchaymoqda. Shunday vaziyatda innovatsion faoliyatni rivojlantirish faqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish vositasi emas, balki korxonaning xalqaro raqobatbardoshligini saqlab qolish mexanizmiga aylanadi [2].

Maqolaning maqsadi yashil iqtisodiyot sharoitida “Navoiy KMK” AJ innovatsion faoliyati samaradorligini prognozlashning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish va uning iqtisodiy natijalarini baholashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun innovatsion faoliyat samaradorligini prognozlashga doir nazariy yondashuvlar o‘rganiladi, yashil samaradorlik indikatorlari dinamikasi tahlil qilinadi, energiya tejalishining mahsulot tannarxiga ta’siri baholanadi hamda 2028-yilgacha kutilayotgan iqtisodiy natijalar asoslanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsion rivojlanish nazariyasida Schumpeter innovatsiyani iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qiladi. Uning yondashuviga ko‘ra, texnologik yangiliklar ishlab chiqarish tizimida sifat jihatidan yangi bosqichni yuzaga keltiradi va raqobat ustunligini shakllantiradi [3]. Konchilik sanoatida bu yondashuv yangi texnologiyalar, avtomatlashtirilgan monitoring, resurs tejamkor uskunalar va ekologik xavfsiz ishlab chiqarish yechimlari orqali namoyon bo‘ladi.[3]

Drucker innovatsiyani boshqaruv jarayoni sifatida tahlil qilib, yangiliklar tasodifiy emas, balki strategik maqsad, tahlil va tizimli boshqaruv orqali natijaga aylanishini ta’kidlaydi [4]. Bu fikr yirik sanoat korxonalari uchun muhim, chunki innovatsion loyiha ishlab chiqarishga tatbiq etilgandan keyingina emas, balki uning iqtisodiy samarasi oldindan baholanganda va prognoz qilinganda strategik qiymatga ega bo‘ladi.[4]

Yashil iqtisodiyot nazariyasida Barbier iqtisodiy o‘sish, tabiiy kapital va ekologik barqarorlik o‘rtasidagi muvozanatni asosiy masala sifatida ko‘rsatadi [5]. Stern esa iqlim o‘zgarishi sharoitida ekologik xarajatlarni kechiktirish kelajakda yanada katta iqtisodiy yo‘qotishlarga olib kelishini asoslaydi [6]. Demak, konchilik sanoatida ekologik modernizatsiya va resurs tejamkorlik xarajat emas, balki uzoq muddatli iqtisodiy xavflarni kamaytiruvchi investitsiya sifatida baholanishi kerak.

Porter va van der Linde ekologik cheklovlar korxonalarni innovatsiyaga undashi va raqobat ustunligini kuchaytirishi mumkinligini ta’kidlaydi [7]. Bu yondashuv ayniqsa konchilik sanoatida amaliy ahamiyatga ega: energiya tejamkor texnologiyalar, chiqindilarni qayta ishlash, suv aylanishini optimallashtirish va raqamli monitoring tizimlari dastlab investitsiya talab qilsa-da, keyinchalik tannarx pasayishi, resurs tejalishi va bozor imiji yaxshilanishi orqali iqtisodiy qaytim beradi.

OECD va Jahon banki tadqiqotlarida konchilik sanoatining yashil transformatsiyasi global iqtisodiyot uchun muhim omil sifatida ko‘riladi. Mineral resurslar qayta tiklanuvchi energetika va yuqori texnologiyali sanoat uchun zarur bo‘lsa-da, ularni qazib olish va qayta ishlash ekologik xavfsiz, energiya tejamkor va ijtimoiy mas’uliyatli modelga asoslanishi kerak [8; 9].

Mahalliy sharoitda esa O‘zbekistonning “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi, energiya samaradorligini oshirish va sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish bo‘yicha belgilangan vazifalar konchilik korxonalarida innovatsion faoliyatni prognozlashning institutsional asosini yaratadi [10]. Shu bois yirik sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oldindan baholash, resurs tejamkorlik natijalarini miqdoriy o‘lchash va tannarxga ta’sirini aniqlash muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli tahlil, dinamik tahlil, indikatorlar usuli, iqtisodiy prognozlash, taqqoslash va konseptual modellashtirish usullaridan foydalanildi. Tizimli tahlil orqali innovatsion faoliyat resurs tejamkorlik, energiya samaradorligi, yashil texnologiyalar va iqtisodiy natija o‘rtasidagi bog‘liq jarayon sifatida o‘rganildi. Dinamik tahlil yordamida 2020–2025-yillar kesimidagi ko‘rsatkichlar o‘zgarishi baholandi.

Innovatsion faoliyat samaradorligini prognozlashda quyidagi konseptual model asos qilib olindi (1-rasm).




**1-rasm. Innovatsion faoliyat samaradorligini prognozlashning konseptual modeli**[1]

Mazkur modelda innovatsion faoliyat yakuniy natijaga bevosita emas, balki bir nechta iqtisodiy uzatish kanallari orqali ta’sir qiladi. Birinchi kanal — energiya va suv tejalishi. Ikkinchi kanal — ekologik va resurs yuklamasining kamayishi. Uchinchi kanal — ishlab chiqarish tannarxining pasayishi. To‘rtinchi kanal — qo‘shimcha qiymat va foyda hajmining ortishi. Beshinchi kanal esa korxonaning uzoq muddatli raqobatbardoshligi va investitsion jozibadorligining oshishidir [11].[2]

Tadqiqotda integral yashil samaradorlikni baholash uchun GVAE, RLI, EVE, GTCI va IGEI ko‘rsatkichlari tizimidan foydalanildi. GVAE resurslar evaziga yaratilgan qo‘shilgan qiymat samaradorligini, RLI resurs va ekologik yuklama darajasini, EVE energiya qiymati samaradorligini, GTCI yashil texnologiyalar hissasini, IGEI esa umumiy integral yashil samaradorlikni ifodalaydi (1-jadval).

1-jadval.
Prognozlashda foydalaniladigan asosiy indikatorlar

| Indikator | Mazmuni | Prognozlashdagi vazifasi |
|---|---|---|
| GVAE | Resurslar evaziga yaratilgan qo‘shilgan qiymat | Resurs qaytimini baholash |
| RLI | Resurs va ekologik yuklama darajasi | Ekologik bosimni aniqlash |
| EVE | Energiya xarajatlari evaziga yaratilgan qiymat | Energiya samaradorligini o‘lchash |
| GTCI | Yashil texnologiyalar hissasi | Texnologik modernizatsiya ta’sirini baholash |
| IGEI | Integral yashil samaradorlik indeksi | Umumiy natijaviy samaradorlikni prognozlash |

Ushbu indikatorlar yordamida innovatsion faoliyatning samaradorligi faqat moliyaviy natija sifatida emas, balki resurs va ekologik omillar bilan bog‘langan holda baholanadi. Bu yondashuv konchilik sanoatida iqtisodiy o‘sishning sifatini aniqlash imkonini beradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalari “Navoiy KMK” AJda yashil innovatsion faoliyat 2020–2025-yillar davomida izchil o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Xususan, 2020-yilda integral yashil samaradorlik indeksi (IGEI) 0,1737 darajasida bo‘lgan bo‘lsa, 2021-yilda 0,3481 ga, 2022-yilda 0,6614 ga, 2023-yilda 1,3169 ga, 2024-yilda 2,5805 ga, 2025-yilda esa 4,7752 ga yetgan. Bu ko‘rsatkichlar yashil texnologiyalar va resurs tejamkorlik choralari korxona iqtisodiy samaradorligiga tobora kuchliroq ta’sir ko‘rsatayotganini bildiradi (2-jadval).

1 Muallif ishlanmasi
2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. (2022). *2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida*.

2-jadval.
"Navoiy KMK" AJda yashil samaradorlik indikatorlari dinamikasi

| Yil | GVAE | RLI | EVE | GTCI | IGEI |
|---|---|---|---|---|---|
| 2020 | 2,2190 | 0,1144 | 3,2627 | 0,0027 | 0,1737 |
| 2021 | 2,4335 | 0,1062 | 3,5517 | 0,0043 | 0,3481 |
| 2022 | 2,8142 | 0,0958 | 4,0800 | 0,0055 | 0,6614 |
| 2023 | 3,2394 | 0,0852 | 4,6422 | 0,0075 | 1,3169 |
| 2024 | 3,8613 | 0,0753 | 5,5146 | 0,0091 | 2,5805 |
| 2025 | 4,6048 | 0,0672 | 6,5464 | 0,0107 | 4,7752 |




**2-rasm. IGEI indeksining 2020–2025-yillardagi o'sish dinamikasi**[3]

Ushbu grafikdan ko'rinadiki, 2020–2022-yillar boshlang'ich o'sish bosqichi bo'lgan. 2023-yildan boshlab IGEI 1 birlikdan oshib, yashil innovatsiyalar iqtisodiy samaradorlikning sezilarli drayveriga aylangan. 2024–2025-yillarda esa indeksning tezkor o'sishi yashil texnologiyalar va resurs tejamkorlik choralari korxona iqtisodiyotida tizimli natija bera boshlaganini ko'rsatadi.

Energiya tejalishining mahsulot tannarxiga ta'siri ham muhim natijalarni ko'rsatadi. 2020-yilda energiya va gaz tejalishi kuzatilmagan bo'lsa, 2021-yilda 50 mln kWh elektr energiyasi va 10 mln $m^3$ gaz tejalgan, bu 5,3 mln AQSh dollari iqtisod va tannarxning 0,18 foizga pasayishiga olib kelgan. 2022-yilda jami iqtisod 13,3 mln AQSh dollariga, 2023-yilda esa 25,0 mln AQSh dollariga yetgan. 2025-yilda elektr tejalishi 262,4 mln kWh, gaz tejalishi 7,09 mln $m^3$, jami iqtisod 21,2 mln AQSh dollari va tannarx pasayishi 0,71 foizni tashkil etgan (3-jadval).

3-jadval.
Energiya tejalishining mahsulot tannarxiga ta'siri

| Yil | Elektr tejalishi, mln kWh | Gaz tejalishi, mln $m^3$ | Jami iqtisod, mln USD | Tannarx pasayishi, % |
|---|---|---|---|---|
| 2020 | 0 | 0 | 0,0 | 0,00 |
| 2021 | 50 | 10 | 5,3 | 0,18 |
| 2022 | 120 | 25 | 13,3 | 0,44 |
| 2023 | 220 | 45 | 25,0 | 0,83 |
| 2024 | 201,4 | 3,5 | 14,7 | 0,49 |
| 2025 | 262,4 | 7,09 | 21,2 | 0,71 |

3 Muallif ishlanmasi

Natijalar shuni ko'rsatadiki, energiya tejalishi bevosita ishlab chiqarish tannarxiga ta'sir qiladi. Biroq bu ta'sir faqat elektr yoki gaz xarajatlarining kamayishi bilan cheklanmaydi. Energiya samaradorligi texnologik jarayonlarning barqarorligini oshiradi, uskunalarning ortiqcha yuklama bilan ishlashini kamaytiradi, texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarini qisqartiradi va ishlab chiqarish uzilishlari xavfini pasaytiradi.

2028-yilgacha ishlab chiqilgan prognoz natijalariga ko'ra, innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan ssenariy, blok-sxema va strategiyalar asosida mahsulot tannarxini pasaytirishdan kutilayotgan daromad 274,33 mlrd so'mni tashkil etishi, foyda hajmi esa 16802,65 mlrd so'mga yetishi mumkinligi aniqlangan .

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, "Navoiy KMK" AJda innovatsion faoliyat samaradorligini prognozlash yashil iqtisodiyot mezonlari bilan uyg'unlashganda yanada aniqroq va amaliyroq mazmun kasb etadi. Agar korxona samaradorligi faqat mahsulot hajmi, foyda yoki rentabellik bilan baholansa, resurs tejalishi, ekologik yuklama va energiya samaradorligi kabi muhim omillar e'tibordan chetda qoladi. Biroq konchilik sanoatida aynan shu omillar uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni belgilaydi.

IGEI indeksining 2020–2025-yillardagi o'sishi shuni ko'rsatadiki, yashil innovatsiyalar dastlab sekin, keyinchalik esa tezlashuvchi iqtisodiy samara beradi. 2020–2021-yillarda texnologik modernizatsiya boshlang'ich natija bergan bo'lsa, 2023-yildan boshlab yashil texnologiyalar iqtisodiy o'sishning mustaqil drayveriga aylangan. Bu holat innovatsion faoliyatda "kechikkan iqtisodiy samara" effektini ko'rsatadi: dastlab investitsiya, moslashuv va tashkiliy qayta qurish talab qilinadi, keyingi bosqichda esa resurs tejalishi, tannarx pasayishi va foyda o'sishi orqali natija kuchayadi.

Energiya tejalishining tannarxga ta'siri ham muhim boshqaruv xulosasini beradi. Elektr va gaz sarfini qisqartirish konchilik sanoatida faqat texnik samaradorlik emas, balki moliyaviy strategiya masalasidir. Chunki energiya xarajatlari ruda qazib olish, maydalash, boyitish va qayta ishlash jarayonlarining deyarli barcha bosqichlariga ta'sir qiladi. Demak, energiya samaradorligini oshirish bo'yicha har bir innovatsion loyiha korxonaning umumiy tannarx siyosatiga bog'lanishi kerak.

Prognozlash natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ular rahbariyatga qaysi yo'nalishga investitsiya kiritish ustuvorligini aniqlash imkonini beradi. Masalan, agar energiya tejamkor texnologiyalar tannarxga bevosita ta'sir qilsa, ularni qisqa va o'rta muddatli investitsiya portfeliga kiritish mumkin. Agar chiqindilarni qayta ishlash qo'shimcha qiymat yaratsa, u sirkulyar iqtisodiyot loyihasi sifatida baholanadi. Agar raqamli monitoring yo'qotishlarni kamaytirsa, u boshqaruv samaradorligini oshiruvchi strategik vosita sifatida qaraladi.

Yashil innovatsiyalarni prognozlashda yana bir muhim jihat — ESG va xalqaro bozor talablari bilan bog'liq. Kelgusida konchilik mahsulotlari bozorida xaridorlar va investorlar mahsulot narxi bilan birga uning ekologik iziga ham e'tibor qaratadi. Shu sababli NKMK kabi yirik korxonalar uchun yashil texnologiyalarni joriy etish nafaqat ichki tannarxni pasaytirish, balki xalqaro bozorlarda ishonchli yetkazib beruvchi sifatida pozitsiyani mustahkamlash vositasi hamdir.

Shu asosda 2028-yilgacha bo'lgan prognoz faqat moliyaviy hisob-kitob emas, balki strategik yo'l xaritasi sifatida qaralishi kerak. Unda innovatsion faoliyatni baholash, raqamli monitoring, loyiha boshqaruvi, energiya tejamkorlik, ekologik rejalashtirish va yashil moliya vositalari o'zaro bog'langan holda ishlashi zarur.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot sharoitida "Navoiy KMK" AJ innovatsion faoliyati samaradorligini prognozlash konchilik korxonalarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy vosita hisoblanadi. Innovatsion faoliyatni baholashda faqat moliyaviy ko'rsatkichlarga tayanish yetarli emas; resurs tejamkorlik, energiya samaradorligi, ekologik yuklama, yashil texnologiyalar hissasi va integral samaradorlik indekslari birgalikda tahlil qilinishi kerak.

2020–2025-yillar dinamikasi shuni ko'rsatadiki, "Navoiy KMK" AJda yashil innovatsiyalar izchil iqtisodiy natija bermoqda. IGEI indeksining 0,1737 dan 4,7752 gacha oshishi resurs tejamkorlik va yashil texnologiyalar korxona samaradorligiga kuchli ta'sir ko'rsatayotganini bildiradi. Energiya tejalishi bo'yicha ko'rsatkichlar esa innovatsion faoliyatning tannarx pasayishiga bevosita ta'sirini asoslaydi.

2028-yilgacha bo'lgan prognoz natijalari innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish orqali mahsulot tannarxini pasaytirishdan 274,33 mlrd so'm miqdorida daromad olish va foyda hajmini 16802,65 mlrd so'mga yetkazish imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa yashil innovatsiyalarni xarajat emas, balki konchilik korxonalarining uzoq muddatli iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi strategik investitsiya sifatida baholash zarurligini tasdiqlaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI


1. “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ. (2024). *Korxona faoliyati va innovatsion rivojlanish bo‘yicha ma’lumotlar*. NKMK AJ.
2. OECD. (2021). *Mining and green growth in the EECCA region*. OECD Publishing.
3. Schumpeter, J. A. (1934). *The theory of economic development*. Harvard University Press.
4. Drucker, P. F. (1985). *Innovation and entrepreneurship: Practice and principles*. Harper & Row.
5. Barbier, E. B. (2011). The policy challenges for green economy and sustainable economic development. *Natural Resources Forum, 35*(3), 233–245.
6. Stern, N. (2007). *The economics of climate change: The Stern review*. Cambridge University Press.
7. Porter, M. E., & van der Linde, C. (1995). Toward a new conception of the environment–competitiveness relationship. *Journal of Economic Perspectives, 9*(4), 97–118.
8. World Bank. (2020). *Minerals for climate action: The mineral intensity of the clean energy transition*. World Bank Group.
9. International Energy Agency. (2021). *The role of critical minerals in clean energy transitions*. IEA.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori. (2019). *2019–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida*.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. (2022). *2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida*.
12. Global Reporting Initiative. (2024). *GRI 14: Mining sector standard*. Global Sustainability Standards Board.
13. International Council on Mining and Metals. (2022). *Mining principles: Performance expectations*. ICMM.
14. Tidd, J., & Bessant, J. (2020). *Managing innovation: Integrating technological, market and organizational change* (7th ed.). Wiley.
15. Freeman, C. (1987). *Technology policy and economic performance: Lessons from Japan*. Pinter Publishers.

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV
**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV
**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

**2026. № 9/1**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz